



Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

## HU SHI TIL ISLOHOTLARINING ZAMONAVIY XITOY SHE'RIYATI SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI

*Ozodjon Ochilov*

Dotsenti, PhD,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ORCID ID: 0000-0002-3119-9863

### MA QOLA HA QIDA

**Kalit so'zlar:** Hu Shi, Xitoy yangi she'riyati, baihua she'riyati, adabiyot islo-hotlari, G'arb va Sharq integratsiyasi, lingvistik va madaniy o'zgarishlar, baihua adabiyotining rivoji, adabiy nazariya, 20-asr Xitoy adabiyotshunoslari, adabiy tanqid.

**Annotatsiya:** Hu Shi (1891—1962) 20-asr Xitoy adabiyotshunoslari orasida yirik shaxs hisoblanadi. Uning adabiy nazariyalari, ayniqsa, baihua tili asosida yangi she'r yaratish bo'yicha qarashlari, xitoy adabiyotining yangilanishida muhim rol o'ynadi. Hu Shi Xitoyning adabiy an'analarini yangilash va zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish g'oyalarini ilgari surgan adib sifatida tanilgan. Uning islohotlari nafaqat lingvistik soha, balki umummadaniy va ijtimoiy jarayonlar modernizatsiyasiga ham chuqur tasir qilgan. Hu Shi o'z faoliyatining boshlangich davrida an'anaviy xitoy she'riyatini zamonaviy badiiy ifoda usullari bilan boyitishga intildi. Biroq vaqt o'tishi bilan u o'zining yangi she'riyatga bo'lgan paradigmalarini o'zgartirdi va an'anaviy uslublarni to'la rad etish orqali yangi demokratik va ko'proq muloqotga yo'naltilgan she'riyat g'oyasini jadal ilgari surdi. Jarayon, ayniqsa, baihua tilining adabiyotda katta miqiyosda qollanilishi orqali amalga oshirildi, bu esa keng jamoatchilikka she'riyatni yanada yaqinlashtirish uchun xizmat qildi. Hu Shining bu harakatlari adabiyotda demokratik prinsiplarni kuchaytirishga olib keldi. U she'riyatni oddiy xalq tili asosida qayta yaratish orqali keng ommaga yaqinlashtirdi va shu tariqa, madaniy va ijtimoiy jarayonlarga ham sezilarli tasir ko'satdi. Baihua tilida yangi she'r yaratish orqali Hu Shi adabiyotda tabiiylik va oddiylikni targib qildi. Bu harakat nafaqat adabiy uslublarni o'zgartirdi, balki Xitoyning madaniy va ijtimoiy hayotini ham yangilashga xizmat qildi. Hu Shi o'z islohotlari orqali Xitoy adabiyotiga yangi yo'nalish berdi va yangi she'riyatni keng jamoatchilikka tanishtirishda muhim rol o'ynadi.

## THE SIGNIFICANCE OF HU SHI'S LANGUAGE REFORMS IN THE FORMATION OF MODERN CHINESE POETRY

**Ozodjon Ochilov**

Associate Professor, PhD,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Hu Shi, Chinese New Poetry, baihua poetry, literary reforms, East-West integration, linguistic and cultural transformations, development of baihua literature, literary theory, 20th century Chinese literary scholars, literary criticism.

– **Abstract:** Hu Shi (1891-1962) is considered a prominent figure among 20th-century Chinese literary scholars. His literary theories, particularly his perspectives on creating new poetry in the baihua language, played a crucial role in the renewal of Chinese literature. Hu Shi is known for advocating the revitalization of Chinese literary traditions and reshaping them based on modern demands. His reforms profoundly impacted not only the linguistic sphere but also the cultural and social processes of modernization. In the early stages of his career, Hu Shi endeavored to enrich traditional Chinese poetry with modern artistic expressions. However, over time, he shifted his paradigm towards new poetry and vigorously promoted the idea of new democratic and more dialogue-oriented poetry, completely abandoning traditional styles. This process was particularly propelled by the widespread use of baihua in literature, making poetry more accessible to the general public. Hu Shi's efforts in promoting baihua poetry contributed to the democratization of literature, bringing it closer to the masses and significantly influencing cultural and social processes. His innovations made a crucial contribution to the development of Chinese poetry and literature as a whole.

## ЗНАЧЕНИЕ ЯЗЫКОВЫХ РЕФОРМ ХУ ШИ В ФОРМИРОВАНИИ СОВРЕМЕННОЙ КИТАЙСКОЙ ПОЭЗИИ

**Озоджон Очилов**

Доцент, PhD,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Ху  
Ши, новая китайская поэзия,  
поэзия на байхуа,

**Аннотация:** Ху Ши (1891-1962) считается выдающейся личностью среди китайских литератороведов XX века. Его литературные теории,

литературные реформы, интеграция Востока и Запада, лингвистические и культурные трансформации, развитие литературы на байхуа, литературная теория, литературоведы Китая XX века, литературная критика. к данной области.

особенно его взгляды на создание новой поэзии на языке байхуа, сыграли ключевую роль в обновлении китайской литературы. Ху Ши известен как сторонник обновления китайских литературных традиций и их переформирования на основе современных требований. Его реформы оказали глубокое влияние не только на лингвистическую сферу, но и на общекультурные и социальные процессы модернизации. В начале своей деятельности Ху Ши стремился обогатить традиционную китайскую поэзию современными художественными выразительными. Однако со временем он изменил свои взгляды на новую поэзию и начал активно продвигать идею новой демократической и более ориентированной на диалог поэзии, полностью отказавшись от традиционных стилей. Процесс особенно активизировался благодаря широкому использованию языка байхуа в литературе, что сделало поэзию более доступной для широкой публики. Деятельность Ху Ши по продвижению поэзии на языке байхуа способствовала демократизации литературы, приближению ее к народным массам и оказала значительное влияние на культурные и социальные процессы. Его нововведения внесли важный вклад в развитие китайской поэзии и литературы в целом.

## KIRISH

Hu Shi (1891—1962) 20-asr Xitoy adabiyotshunoslari orasida yirik shaxs hisoblanadi. Uning adabiy nazariyalari, ayniqsa, baihua tili asosida yangi she'r yaratish bo'yicha qarashlari xitoy adabiyotining yangilanishida muhim rol o'ynadi. Hu Shi Xitoyning adabiy an'analarini yangilash va zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish g'oyalarini ilgari surgan adib sifatida tanilgan. Uning islohotlari nafaqat lingvistik soha, balki umummadaniy va ijtimoiy jarayonlar modernizatsiyasiga ham chuqur ta'sir qilgan. Hu Shi o'z faoliyatining boshlang'ich davrida an'anaviy xitoy she'riyatini zamonaviy badiiy ifoda usullari bilan boyitishga intildi. Biroq, vaqt o'tishi bilan u o'zining yangi she'riyatga bo'lgan paradigmalarini o'zgartirdi va an'anaviy uslublarni to'la rad etish orqali yangi, demokratik va ko'proq muloqotga yo'naltirilgan she'riyat g'oyasini jadal ilgari surdi. Jarayon ayniqsa baihua tilini adabiyotda katta miqiyosda qo'llanilishi orqali amalga oshirildi, bu esa keng jamoatchilikka she'riyatni yanada yaqinlashtirish uchun xizmat qildi.

**Asosiy qism.** Hu Shi o'smirlik davrida keng ko'lamlı xitoy an'anaviy madaniyati va klassik she'riyatining chuqur ta'sirida o'z bilimlarini boyitdi. Turli manbalardan ma'lum bo'lishicha, u asosiy e'tiborini konfutsiyalik ta'limotiga va klassik adabiyot namunalariiga qaratgan, bu sohalarga oid chuqur bilim egallagan. Keyinchalik Hu Shida yangi she'riyat nazariyasiga oid qarashlar rivojiana boshladi, uning an'anaviy paradigmalarga nisbatan pozitsiyasining keskin o'zgara boshlaganligi shundan dalolat beradi. 1910-yilda Hu Shi, davlat tomonidan berilgan grant asosida AQSHga tahsil olish uchun yuborildi, bu esa unga G'arb madaniyati va nazariyalarini chuqur o'rganish imkoniyatini berdi. Amerikada o'tkazgan yetti yillik o'qish davrida u doimiy ravishda yangi nazariyalar bilan tanishib, ularni Xitoyning an'anaviy adabiyoti bilan birlashtirishga intildi. O'zining izlanishlari davomida to'plagan bilimlari asosida Hu Shi baihua tilidagi she'riyat nazariyasini yaratdi, bu esa keyinchalik Xitoy yangi she'riyatining g'oyaviy poydevori sifatida xizmat qildi.

Amerikadagi o‘qishi davomida Hu Shining baihua she’riyati borasidagi izlanishlari nazariya va amaliyat bilan hamohang kechganligi kuzatiladi. U mazkur davrdagi ijodida she’riyatning an’anaviy qonuniyatlaridan voz kecholmagan bo‘lsa-da, o‘zining nazariy qarashlarida bunday she’riyatning murakkabligi haqida gapirishni boshlagan va ayrim masalalar yechimiga doir takliflar bildirayotgan pallaga yetgan edi. Hu Shi “Adabiyot takomili va uning muvaffaqiyatini ta’min etish uchun nuqsonlardan saqlanish to‘g‘risida” deb nomlangan maqolasida u o‘z davri adabiyotining eng katta qusurlarini ochiqdan ochiq sanaydi: “Faqt shakl bor-u ruhiyat yo‘q, faqt matn boru sifat yo‘q, faqt jarangdor qofiyalar bor, ular esa shunchaki yuzaki so‘zlardir”.<sup>1</sup> Adib o‘z o‘rnida adabiyot muvaffaqiyatini ta’min etish uchun nuqsonlardan saqlanishning ma’lum choralarini taklif qiladi: so‘zlearning ma’noga ega bo‘lishi, grammatika qoidalari asosida yozish va yozuvda ushbu qoidalarni qo’llash (“即言之有物、讲文法、用文之文字”). Ya’ni adabiyot va yozma matnlarni yaratishda aniq ma’no, to‘g‘ri grammatika va yuqori darajadagi yozuv mahorati kerakligi ta’kidlangan. Uning bu qarashlari sekin-astalik bilan rivojlanib “yangi adabiyot uchun sakkiz yechim”<sup>2</sup> kosepsiyasining paydo bo‘lishiga olib keldi. Shundan so‘ng Hu Shi ancha shov-shuvlarga sabab bo‘lgan “Adabiyotni takomillashtirish bo‘yicha takliflar” nomli maqolasini e’lon qildi. Mazkur maqolada adabiyotning mazmunan va shaklan qayta yaratish jarayonida Hu Shi o‘zining pozitsiyasini radikal islohotlardan mo‘tadil takomillashuvga tomon o‘zgartira boshlaganligiga guvoh bo‘lamiz. Shu bilan birga, yangi adabiyot uchun taklif qilingan “Sakkiz masala”ning mazmuni kengaytirilgan va ayrim tuzatishlar kiritilganligini kuzatamiz. Aytish mumkinki, bu Hu Shining erta davr she’riyat nazariyasiga doir eng muhim natijalaridan bo‘lib, o‘z davrida she’riy ijjod amaliyotiga eng ko‘p yo‘naltirilgan nazariyalardan hisoblanadi.

Albatta, Hu Shi tomonidan takomilga yetkazilgan “Sakkiz yechim” asosan uning Amerikada tahsil olish davrida hammaslagi Mei Guangdi bilan olib borgan bahs-munozaralar natijasida shakllangan. Ushbu davrda adib G‘arb nazariyalarini o‘rganish bilan birga, o‘z ijodiy amaliyotidagi tajribalarni umumlashtirishga ham katta e’tibor berdi va bu tajribalarni G‘arb bilan birlashtirish yo‘llarini izladi. Hu Shi o‘z esdaliklarida yozishicha, agar o‘sha paytdagi yaqin do‘srtlari va hamkorlari bilan olib borgan muntazam muloqotlari bo‘limganida, uning adabiy qarashlari bunday katta o‘zgarishlarni boshdan kechirmas va shu tarzda tizimli bir rejaga aylanib, asta-sekin o‘z yo‘lini topa olmas edi<sup>3</sup>. U tilga olgan guruhdosh ikki qadrondi aynan Mei Guangdi va Ren Hongjunlar bo‘lib, ular o‘rtasidagi muhokama va munozaralar 1915-yilda boshlanadi va bir yildan ko‘proq vaqt davom etadi. Hu Shi ilgari surayotgan g‘oyaga ko‘ra baihuada - xalq tilida she’r yozish mumkin. U “Liang tog‘iga majbur ketish”<sup>4</sup> maqolasida baihua adabiyoti uchun kurash jarayonini tavsiflab, baihua adabiyotida erishilgan janglarda o‘n mahorabidan yetti-sakkiztasida g‘alaba qozonganmiz. Baihua she’riyat olamini zabit eta olsak, baihua adabiyotining g‘alabasi to‘liq bo‘ladi, degan fikrlarini bayon etgan. Bu kuzatuvlar uning baihua she’riyat masalasiga qanchalik e’tibor qaratganini ko‘rsatadi.

Hu Shi she’riyatni isloh qilish borasidagi bir qator munozara va muhokamalardan so‘ng asosan quyidagi qarashlarni ilgari surdi:

**Til va yozuv birligiga erishish.** Nutq va yozuvning uzoq vaqt davomida bir-biridan uzoqlashuvi tufayli yozma til sekin-astalik bilan doimo faol va boy bo‘lgan shevalardan xoli tilga aylanib bordi. Mumtoz she’riyatning eng asosiy konsepsiyasi, u nafis bo‘lishi kerak, nafislikka esa turli sheva, jargonlardan kirib kelgan so‘zlar zarar yetkazadi, deb hisoblangan. Shu sababdan she’riyat muntazam ravishda ulardan “tozalanib” borildi va natijada u oddiy xalq

<sup>1</sup>胡适：《胡适留学日记》第3卷,上海商务印书馆,1947年11月第1版,第251页。

<sup>2</sup>O‘sha manba: -B.:1002-1003.

<sup>3</sup>胡适：《逼上梁山》，《胡适文集》第1卷，北京大学出版社，1998年，第159页。

<sup>4</sup>《逼上梁山》("Bi Shang Liang Shan") - bu klassik Xitoy adabiyotida tez-tez uchraydigan bir ibora bo‘lib, "Liang tog‘iga majburan chiqish" degan ma’noni anglatadi. Bu ibora Xitoyning mashhur romani - "水浒传" ("Suv bo‘yida")dan olingan. Roman adolatsizlik va ijtimoiy bosimlar tufayli qaroqchilikka majbur bo‘lgan turli xil odamlar guruhini hikoya qiladi. Ularning ko‘pchiligi adolat izlab, oxir-oqibat Liang tog‘idan boshpana topadi va qaroqchilar guruhiga qo‘siladi. Bu ibora, kengroq ma’noda, kishilarni o‘zlarining xohish-irodasi tashqarisida ekstremalqarorlar qabul qilishga majbur qiladigan vaziyatlarni ifodalash uchun ishlataladi.

tilidan butunlay uzoqlashdi, ularni o‘qib tushunish tobora murakkablashib bordi. Hu Shi 19-asr oxirlarida Huang Zunxian tomonidan ilgari surilgan “nimani so‘zlasam, shuni yozaman” shiorini qo‘llab-quvvatlagan holda, she‘riyatda so‘zlashuv tili, shevalar va dialektlar aks etishi kerakligini ta’kidladi. U til va yozuv birligiga erishish maqsadida “she‘r yozish matn yozishdek bo‘lishi kerak”, “she‘r yozish so‘zlash kabi bo‘lishi kerak” singari she‘riyat tili islohotiga qaratilgan g‘oyalarini faol targ‘ib qildi. Uning “She‘r matn kabi bo‘lishi kerak” g‘oyasi she‘r yaratish jarayonida aniq belgilangan qoidalarga rioya qilinmasligi, she‘r matn yoki badiiy esse kabi tabiiy tashkil etilgan bo‘lishi kerakligini anglatadi. “She‘r yozish so‘zlash kabi bo‘lishi kerak” g‘oyasi tinglovchi yoki o‘quvchining she‘r matni bilan yanada yaqinroq aloqa o‘rnatish imkoniyatini yaratish uchun uning sodda va tabiiy qurilishga intilishi kerakligini ta’kidlaydi. Bunday yondashuv she‘riyatni yanada demokratik va kengroq auditoriyaga murojaat qiluvchi vosita darajasiga ko‘tarib, sodda va samimiy ifoda uslublarini qo‘llashni targ‘ib qiladi.

**“Tirik adabiyot” va “o‘lik adabiyot”:** Hu Shi bu haqda shunday yozadi: *Xayf, so‘nggi besh yuz yil davomida yarim o‘lik qadimgi matnlar, yarim o‘lik she‘riyat va qofiyalangan so‘zlar jonli adabiyot o‘rnini qayta egallab oldi, tirik adabiyotning zaiflashuvi, umidsizligi bugungi kunga qadar davom etmoqda*<sup>5</sup>. Hu Shi so‘nggi besh yuz yil ichida xitoy adabiyoti, ayniqsa, qadimgi uslubdagi matnlar va she‘riyatning ahvolini keskin tanqid qildi. She‘riyat “Yarim jonsiz (“半死之古文” va “半死之诗词”) holga kelib qolganligi va zamonaviy kontekstda avvalgidek ta’sir kuchiga ega emasligini ta’kidlaydi. An’anaviy adabiyot bir paytlar jonli adabiyotning o‘rnini egallab, yangi va jonliroq adabiyot shakllariga yo‘l ochish o‘rniga, tobora murakkablashib borgan qat‘iy qoidalarga ega adabiyotni yaratish bilan band bo‘ldi va oqibatda u ayni paytda nochor holga keldi, u zamonaviy odamning his tuyg‘ularni kuylashga kuchsiz, bu xalq uchun tirik adabiyot, tirik she‘r kerak, degan fikrda qat‘iy turdi.

**“Har bir davrning o‘z adabiyoti bor” g‘oyasi.** Hu Shi G‘arbning zamonaviy ilmiy-falsafiy ta’limotlariga asoslangan hamda evolutsiya nazariyasiga oid yondashuvar bilan tushuntirilgan “har bir davrning o‘z adabiyoti bor” g‘oyasini ilgari surdi. Hu Shi bu g‘oyasi orqali Xitoyning “adabiyot inqilobi” davrida G‘arbning ilmiy nazariyalaridan foydalanish kerakligiga urg‘u beradi. “Evolutsiya nazariyasi” yondashuvi, adabiyotning vaqt va jamiyat sharoitlari bilan qanday o‘zgarib borishini tahlil qilishda qo‘llagan holda o‘scha davrning mada-niy va ijtimoiy o‘zgarishlarini aks ettiruvchi yangi adabiyot yaratish va bunda, avvalambor, barcha uchun tushunarli bo‘lgan yagona tilni targ‘ib qilish g‘oyasini amalga oshirishga harakat qildi.

**Baihua tarixini o‘rganish.** Qadimgi she‘riyatdan baihua elementlarini qidirish bo‘yicha chuqur o‘rganish boshlandi, bu esa keyinchalik “Milliy adabiyot tarixi” va “Baihua adabiyoti tarixi”ning nazariy asoslarini yaratishga xizmat qildi. Bu tajriba, qadimgi matnlarni yangi perspektivadan baholash va tushunish hamda baihua tilining adabiyotdagagi o‘rni va ahamiyatini qayta ko‘rib chiqish imkonini berdi.

Baihua yangi she‘riyatini targ‘ib qilish jarayonida Hu Shi yangi she‘rlar yaratish bilan ham band bo‘lgan. Biroq, u avvalroq baihua tilida an’anaviy uslubda she‘riyat yaratish tajribasidan o‘tgan bo‘lib, bu jarayon unga baihua tilida she‘riy ifoda vositalarini mohirona qo‘llashni o‘rganishga yordam bergen bo‘lsa-da, boshqa tomondan uning an’anaviy she‘riyat ta’siridan xalos bo‘lishini qiyinlashtirgan. Masalan:

### 江上秋晨<sup>6</sup>

眼前风景好，何必梦江南？□  
云影渡山黑，江波破水蓝。  
渐多黄叶下，颇怪白鸥贪。  
小小秋蝴蝶，随分来两三。□

### Jiāngshàng qiū chén<sup>6</sup>

Yǎnqián fēngjǐng hǎo, Hébì mèng jiāngnán?  
Yún yǐng dù shān hēi, Jiāngbō pòshuǐ lán.  
Jiàn duō huáng yè xià, Pō guài bái ū tān.  
Xiǎo xiǎo qiū húdié, Suífēn lái liǎng sān.

<sup>5</sup>胡适：《胡适留学日记》第3卷,上海商务印书馆,1947年11月第1版,第865页。

<sup>6</sup>胡适:《白话律诗》,《胡适留学日记》第4卷,上海商务印书馆,1947年11月 第1版。

**Daryo kuz tongi<sup>7</sup>**

Ko'z oldimda manzara go'zal,  
 Nega orzu qilay Janub tomonni?  
 Tog'larni qoraytirar bulutlar,  
 To'lqinlar buzadi moviy daryoni.  
 Ko'paymoqda sarg'aygan barglar,  
 Ochko'z chag'alaylar kezar har yonni.  
 Kuz oyining mittigina kapalaklari,  
 Ikki-uchta, sekin ortmoqda soni.

Bu Hu Shining 1916-yil an'anaviy metrik qoidalarga binoan baihua tilida yozgan ilk she'ri bo'lib, kundaliklarida yozishicha, do'stlari va hammaslaklari bu she'rni baihua she'ri sifatida tan olishmaydi. Unga baho berishar ekan, she'rning tili oddiy, tushunish oson, hech qanday murakkablik yo'q, unda baribir an'anaviy badiiy tilning kuchli ta'mi sezilishini; “好 hao” (yaxshi) va “黑 hei” (qora) so'zlari ikki ohangli ekanligi; “南 nan” (Janub), “蓝 lan” (moviy), “贪 tan” (ochko'z) so'zlari an'anaviy she'riyatda standart qatlamlı qofiya sanalishi, she'r butunlay tabiat tasvirlariga bag'ishlangan bo'lib, chuqur hissiy yuklamalarga ega emasligi aytiladi. Adib unga bildirilgan tanqidiy fikrlarga javoban, she'riyatning asosiy ilhom manbayi tabiy va instinkтив hislar ekanligini ta'kidlagan holda: she'riyat tabiatdan kelib chiqadi va shoirning ichki tuyg'ulari tomonidan boshqariladi, uni esa tiyib turishning sira iloji yo'q, she'riyat bu tabiiylikdir<sup>8</sup>, deya o'z she'ri haqida mulohazalarini bayon qiladi.

Hu Shi biroz o'tib, xitoy yangi she'r tarixida kashfiyot sifatida qaraladigan “Kapalak” she'rini yozdi:

**蝴蝶<sup>9</sup>**

两个黄蝴蝶， 双双飞上天。  
 不知为什么， 一个忽飞还。  
 剩下那一个， 孤单怪可怜。  
 也无心上天， 天上太孤单。 □

**Kapalaklar**

Liǎng gè huánghúdié, shuāng shuāngfēi shàngtiān.  
 Bùzhī wèishéme, yīgè hū fēi huan.  
 Shèng xià nà yīgè, gūdān guài kělián.  
 Yě wúxīn shàngtiān, tiānshàng tài gūdān.

**Daryo kuz tongi**

Ikki sariq kapalak,  
 Uchishdilar birga osmonga.  
 Bilmadim ne uchundir,  
 Biri qaytdi orti tomonga.  
 Unda qolgan u bir kapalak,  
 Yolg'iz qoldi qanday bechora.  
 Hissiz uchar endi u ko'kda,  
 Yolg'iz qoldi usiz, nachora.

Bu she'r ham 1916-yilda yozilgan bo'lib, Hu Shining baihuada yozilgan ilk she'rlaridan hisoblanadi. “Sinama she'rlar to'plami” dan birinchi jild, birinchi she'ri sifatida o'rin egallaganligini hisobga olsak, mazkur she'r Hu Shi uchun alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy baho berish mezonlari bilan qaraganda, she'r badiiy qimmati oz,

<sup>7</sup>Tarjimalar maqola muallifiniki

<sup>8</sup>胡适：《胡适留学日记》第3卷，上海商务印书馆，1947年11月第1版，第22页。

<sup>9</sup>胡适：《尝试集》，《胡适全集》第10卷，安徽教育出版社，2003年，第50页。

muvaffaqiyatsiz yangi she'rdek tuyulishi mumkin, lekin tarixiy nuqtayi nazardan baho berilsa, Hu Shi baihuada sinab ko'rgan muvaffaqiyatli tajribalardan biri sifatida tan olishimiz lozim. Shu tariqa baihua og'zaki tili she'rga kirib kelishi jadallahdi va uning imkoniyatlaridan kelib chiqib, tabiiy ritm shakllana boshladi, qofiyalarning ham erkinligi ta'minlanishi uchun yana bir qadam tashlandi.

Hu Shi, 20-asr Xitoy adabiyotidagi yangilanishlar harakatining markaziy shaxslaridan biri sifatida, til va she'riyatda katta o'zgarishlarni ilgari surdi. Baihua tili Hu Shi tashabbuslari natijasida adabiy va ilmiy sohalarda keng qo'llanila boshladi. Uning bu yo'nalihsdagi asosiy maqsadi, til va adabiyotni oddiy xalqqa yaqinroq qilish va shu orqali ilmiy va ma'naviy taraqqiyotga zamin yaratish edi. Hu Shi she'riyatdagagi an'anaviy qoliplarni buzishga intildi, bu esa "she'riyat ozodligi" g'oyasi asosida amalga oshirildi. Uning fikricha, she'rlar murakkab qofiya va vazndan ozod bo'lishi, tabiiy va samimi ifodalarga ega bo'lishi kerak edi. Bu yangilik avvaliga an'anaviy adabiy doiralar tomonidan keskin tanqid qilindi. Ko'plab qadimchi olimlar va shoirlar Hu Shining bu yondashuvini xitoy adabiy merosiga zarar yetkazishga urinish deb baholashdi.

Hu Shi kabi bir qator islohot tarafdoqlari klassik xitoy tili tizimi, ya'ni *venyanning* yangi zamonga xos tushunchalarni erkin ifoda etish imkoniyatlari yo'q, an'anaviy adabiyot nazariyalari va uslublari jamiyatning rivojlanish ehtiyojlariga mos kelmay qoldi va yangi davrning ma'naviy mazmunini ifodalay olmaydi, shuning uchun yangi tizimni o'rnatish hamda belgi va ma'no o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarur, degan g'oyani ilgari sura boshlashdi. Dastlab, Huang Zunxian va Liang Qichao yangi adabiyot rivoji uchun unga mos keluvchi modellarni qidirishdi, ular tomonidan ilk bor amalga oshirilgan "she'riyat inqilobi" va "hikoyachilik inqilobi" eski adabiy shakllar adabiyot rivojiga to'sqinlik qilayotganligini, yangi adabiy shakllarni o'rnatish zarururiyati borligini ko'rsatadi. Bu asosda, Hu Shi an'anaviy xitoy tilini baihua tili bilan almashtirishdek inqilobiy g'oyasini tarixiy oqimga mos ravishda ilgari surdi va shu bilan birga adabiyot ichki mexanizmini sozlash va o'zgartirish ehtiyojini qondirishga ulkan hissa qo'shdi, deb hisoblashimiz mumkin.

Baihua harakati asosida nazm va nasrga nisbatan yuzaga kelgan qarshiliklar sezilarli darajada farq qiladi. Hu Shi baihua tilini she'riyatda qo'llash masalasini ko'targanida, uning yondashuvi ikki asosiy jihatda namoyon bo'ladi. Bular, birinchidan, u eski she'riyatning qat'iy metrik qoidalarini rad etib, tabiiy bo'g'lnlarga o'tishni taklif qilgan bo'lsa, ikkinchidan, baihuada she'r yozish bu - faqat klassik xitoy tilining leksikasini baihua leksikasiga almashtirish emas, balki baihua grammatikasini qo'llash va xorijiy tillar grammatikasidan ilhomlanish orqali prozaik she'riyat shakliga o'tishdan iborat edi. Bu yangi zamon ruhida fikrlashni boshlagan ziylolarning an'anaviy she'riyat tiliga va shakliga qarshi isyonи edi, ularning bunday harakatlari yangi she'riyat shakllari va uslublarini yaratish yo'lini ochdi. Hu Shining "She'r yozish, matn yozishdek bo'lsin" g'oyasi ortida davrning talab qilgan chuqur o'zgarishlari yotgan bo'lsa-da, hali ham ustunlik qilayotgan she'riyat an'analari va estetik qadriyatlar kuchli qarshilikka ega edi. Baihuani she'riyatda qo'llash masalasi ko'tarilganda, unga bo'lgan qarshilik juda keskin bo'ldi. Qarshilik harakatining asosiy shaxslaridan biri Mei Guangdi, 'Har bir janr o'ziga xos. Roman va qo'shiqlar uchun yoziluvchi *tsi* (词) va *chuy* (曲) uchun baihuani ishlatish mumkin, lekin aslo she'riyatda emas, degan fikrni ilgari surdi. Ren Shuyong esa baihua tilining o'z ishlatilish o'rni bor, masalan, nasr yoki sahna nutqida foydalanish mumkin, lekin she'riyatda ishlatib bo'lmaydi, deb hisoblaydi<sup>10</sup>. Ko'rinadiki, Mei Guangdi va Ren Shuyong kabi adiblar adabiyotni isloh qilish kerakligi, zamon ruhiga moslashtirish lozimligi tarafdoqlari bo'lishgan, ular faqatgina Hu Shi tomonidan yangilanishlarning eng muhim masalasi sifatida ilgari surilayotgan she'riyat tilini rasman o'zgartirish, venyan o'rniga baihuani qo'llash taklifiga nisbatan qat'iy qarshi turishgan.

Xitoy adabiyoti tarixiga nazar solsak, nazm nasrdan ko'ra ustun mavqega ega ekanligini, she'riyatning adabiyot olamida eng yuqori madaniy-estetik tur sifatida tan olinganligini ko'rish mumkin. Nasriy asarlarga qo'yilgan qoidalar ancha moslashuvchan bo'lib, yozuvchilar o'z asarlarini xohlagan tarzda yozish imkoniyatiga ega bo'lib, ular til jihatidan venyan yoki

<sup>10</sup>胡适：《逼上梁山》，《胡适文集》第1卷，北京大学出版社，1998年，第156页。

baihuada erkin yozishlari mumkin edi. Biroq, she'riyat uchun bunday yondashuv mumkin emas, chunki she'riyat Xitoy o'rta asrlar madaniy diskursida alohida va deyarli muqaddas darajadagi o'ringa ega bo'lgan. Tang sulolasi davrida qat'iy metrik qoidalarga asoslangan she'riyatga talab ortib, bu talablar vaqt o'tishi bilan yanada kuchaygan. She'riyat tili istisnosiz venyan tilida bo'lib, uning baihuada yozilishi, hatto ko'pchilik zamonaviy kishilar tomonidan ham qabul qilinmaydigan holat edi. Xitoy adabiyot an'anavida she'riyat asosiy tur sifatida yuqori madaniyatga tegishli bo'lib, u ko'cha-ko'y so'zlaridan iborat romanlar kabi quyi madaniyatiga xos hisoblanmaganligi sabab, baihua tilida yozilgan she'riyat estetik me'yor sifatida qabul qilinmagan. Bunday vaziyatda Hu Shining she'riyat tilini baihuaga o'tkazish g'oyasi bilan chiqishi adabiyot ahli o'rtasida katta dessonans keltirib chiqarishi tabiiy edi.

Ko'p urinishlardan so'ng baihuani she'riyat tili sifatida qo'llash o'sha vaqt kishilarining estetik mezonlariga katta ta'sir ko'rsata oldi, faqat bir muammo - baihuani she'riyatning haqiqiy "rasmiy" tili sifatida qabul qilish masalasi qolgan edi. Venyan an'anaviy yuqori qatlamaq madaniyatining belgisi sifatida namoyon bo'lsa, baihua oddiy xalqning kundalik so'zlashuv tili, ya'ni u quyi qatlamaq madaniyatiga xos. Hu Shi shundan kelib chiqib, baihua nima sababdan xitoy yangi she'riyatining tili bo'lishi kerakligini muxtasar tushuntirib berdi: bosh g'oya baihua tilini ilgari surish orqali nafaqat uni adabiyotning asil tili darajasiga olib chiqish, balki baihua tili xos bo'lidan quyi madaniyatni yangi madaniyatni tatbiq qilishning ulkan qudratiga aylantirish. Hu Shi shunday deydi: Kuchimiz boricha baihuada she'r yozaveraylik, baihua adabiyoti uchun kechayotgan jangda eng katta qal'ani qo'lga kiritmaguncha harakat qilaylik. Zero, she'riyat yozma adabiyotning eng sof yoquti, adabiyot san'atining eng yuksak ifodasidir. She'r, bu g'oyalarni qo'lga kiritish maydoni sifatida zabit etilishi lozim, shundagina baihua tilining muvaffaqiyati o'zining so'nggi kafolatiga ega bo'lidan hisoblanadi<sup>11</sup>. Agar baihua she'riyat tili sifatida tan olinadigan bo'lsa, uning yuqori madaniyatga xos deb hisoblangan an'anaviy she'riyatga kirib borishi tabiiy va mantiqiy holga aylanadi. Shubhasiz, Yangi Madaniyat Harakati tashabbuskorlari she'riyatni baihua harakatining markaziy qismiga aylantirishga intilishgan. Ular bu orqali adabiyot an'analarida asli o'rni bo'lmanan baihuani quyi qatlamaq madaniyatining vakili sifatida rasmiy tan olinish darajasiga ko'tarishni maqsad qilishgan. Bu islohotchilar tomonidan ilgari surilgan eng kuchli strategiyalardan biri bo'lib, yangi adabiyot tilini qonuniylashtirishning eng samarali yo'li hisoblanar edi.

Baihua she'riyati rasman tan olindi ham deylik, biroq uning tashabbuskorlari oldida baihua she'riyatining imkoniyatlarini qanday ro'yobga chiqarishdek muhim masala turardi, chunki ularda ajdoddlardan deyarli hech qanday tajriba meros bo'lib qolmagan. Bu masalaning yechimi yuzasidan inqilobchi va muxolif oqim vakillari turli fikrlarni o'rtaga tashlay boshlashdi. Muxolif Wu Mi yangi she'riyatning qoidasi yangi materiallarni tayyor eski qoliplarga joylash kerak, degan tashabbus bilan chiqdi. Shundan so'ng ko'pchilik tajriba tariqasida she'rlar yoza boshlashdi: eski shaklga moslashtirilgan baihua she'rlar, eski shakldagi "tsi", "qu"larni baihualashtirish, prozaik baihua she'rlar yozish va hokazolar. Hu Shi esa baihua she'rlari bo'yicha o'zining alohida amaliyotni olib bordi, uning "Sinama she'rlar to'plami" baihua she'riyati islohotlari maydonidagi birinchi portlash bo'ldi, deb baholash mumkin. Biroq, baihua she'riyatiga o'tishning dastlabki davrida klassik she'riyatning metrik qoidalari va boshqa elementlaridan voz kechilgan bo'lsa-da, hissiy-emotsional jihatlarini saqlab qolgandi. Hu Shi "Yangi she'r haqida" maqolasida tan olganidek, unga ma'lum bo'lidan yangi she'riyat vakillarining ko'pchiligi eski uslubdagi she'r, qo'shiqlardan chiqib kelishgan"<sup>12</sup>. Yangi adabiyot harakati, "4-may" harakatining madaniyat qanoti ham strategik jihatdan baihua she'riyatini baihua nasridan ancha ustun mavqega ega deb hisoblashsa-da, erishilgan natijalar quvonarli emasdi. Bunga yangi she'r harakatining boshlang'ich namunalarining sifat jihatdan pastligini, baihua she'riyati nazariyasining sayozligi hamda yangi she'riyat haligacha "sinov" jarayonidan o'tayotganligini asosiy sabablar sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Nima bo'lganda ham baihua she'riyati allaqachon "buzilish"dan "qurilish"ga tomon yo'nalgan o'ta murakkab

<sup>11</sup>李孝悌.胡适与白话文运动再评估——从清末的白话文谈起.清末的下层社会启蒙运动:1901-1911.石家庄:河北教育出版社,2001.287.

<sup>12</sup>胡适.谈新诗.中国新文学大系·建设理论集.上海:上海良友图书印刷公司,1935.

va ortga qaytib bo‘lmas yo‘lga tushib bo‘lgan edi. U “Manjurlar sultanatining so‘nggi yillariga kelib o‘z mavqeyini ancha mustahkamlab olgan baihuuning o‘rnini qaytadan belgilab berdi. Asli o‘rni quyi yoki o‘rta-quyi qatlAMDagi jamiyatga xos bo‘lgan baihua endi har bir qatlamgacha kirib borishga erishdi; uning foydalanuvchilarini arava tortib, sharbat sotadigan odamlardan adabiyot va san‘at olamining “qo‘riqchilari” darajasigacha ko‘tardi”<sup>13</sup>. Tan olib aytish mumkinki, Hu Shi ko‘plab jiddiy qiyinchiliklarga qaramay yangi adabiyot uchun yangi yo‘l ochib berdi, u zamonaviy she’riyat uchun har tomonlama pishiq namunalar taqdim eta olmagan bo‘lsa-da, keyinchalik paydo bo‘lgan yangi she’riyatning turlicha masalalari Hu Shi tomonidan ilgari surilgan baihua she’riyati nazariyalari bilan chambarchas bog‘liqligi aksaryat zamondosh olimlar tomonidan so‘zsiz tan olinadi.

## XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Hu Shining yangi adabiyot, xususan, yangi she’riyat yaratish borasidagi izlanishlari, qizg‘in faoliyati va uning zamonaviy xitoy adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bo‘yicha quyidagicha xulosalarga kelindi: **birinchidan**, Hu Shi xitoy adabiyotida klassik xitoy tili (venyan) o‘rniga oddiy xalq so‘zlashuv tili - baihuadan foydalanishni targ‘ib qilish orqali adabiyotni tubdan modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynadi; adabiyotni yanada ommalashtirish va zamonavuiy hayotga moslashtirish maqsadida tilni soddalashtirishga alohida urg‘u berishi adabiyotni demokratlashtirish va uning ahamiyatini oshirishda katta qadam bo‘ldi; **ikkinchidan**, Hu Shi G‘arb adabiy nazariyalari bilan tanishib, AQSHda olgan bilimlarini xitoy adabiy an‘analari bilan integratsiyalashga harakat qildi; bu yondashuv G‘arb va Sharq adabiyotini birlashtiruvchi, kengroq madaniy va adabiy tushunchalar qabul qilinishini ilgari suruvchi gibrid madaniyatni shakllantirishga yordam berdi; **uchinchidan**, Hu Shi an‘anaviy she’riy shakl va uslublardan to‘liq voz kechishga undab, zamonaviy san‘atda novatorlik va kreativlikni rag‘batlantirishga katta hissa qo‘shdi. Uning baihua tilida yangi she’riyat yaratish g‘oyasi, adabiyot sohasida tub burilish yaratib, badiiy ifodaning chegaralarini kengaytirdi. Bu yondashuv, Hu Shi ta’kid laganidek, tilning sodda va tabiiy qurilishini qo‘llab-quvvatlash orqali she’riyatni kengroq auditoriyaga murojaat qiluvchi vositaga aylantirishga xizmat qildi; **to‘rtinchidan**, Hu Shining bu yondashuvi boshqa san‘at turlariga ham ilhom berdi. Masalan, rassomlar, musiqachilar va dramaturglar ham o‘z ishlarida an‘anaviy qoliplardan chetlashib, zamonaviy ifodalash usullarini qabul qilishga moyil bo‘ldilar. Hu Shining islohotlari nafaqat xitoy adabiyotiga, balki, umuman, san‘atning turli sohalariga yangi yo‘nalish va yangilanish ruhini olib kirdi. Bu o‘zgarishlar zamonaviy san‘at asarlarining yaratilish uslubida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi va ijodkorlarni yanada erkinroq va eksperiment qilishga undadi; **beshinchidan**, Hu Shi o‘z islohotlari orqali til va adabiyotni yangilash bilan birga, Xitoy jamiyatida chuqr ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni rag‘batlantirgan. Uning baihua tilini adabiyotda qo‘llashga bo‘lgan harakati, an‘anaviy uslublardan voz kechish va yangi she’riyat yaratish tashabbuslari, o‘z navbatida, kengroq ijtimoiy va madaniy diskurslarni yangilashga xizmat qildi. Hu Shi islohotlari nafaqat tilshunoslik va adabiyotni, balki, umuman, Xitoyning zamonaviy madaniyatini qayta shakllantirishda muhim rol o‘ynadi, bu esa eski qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqish va yangicha fikrlash usullarini keng tarqatish imkonini berdi; **oltinchidan**, Hu Shi o‘zining adabiy islohotlarini ilgari surishda turli qarshiliklar va tanqidlar bilan duch kelgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uning g‘oyalari kengroq qabul qilina boshlandi. Uning islohotlari nafaqat she’riyat, balki butun bir adabiy tilning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Natijada, baihua tili zamonaviy xitoy adabiyotining asosiy vositasiga aylandi va bu til orqali yozilgan asarlar xitoy madaniyati va jamiyatida chuqr ildiz otishga muvaffaq bo‘ldi.

<sup>13</sup>李孝悌.胡适与白话文运动再评估——从清末的白话文谈起.清末的下层社会启蒙运动:1901-1911.石家庄:河北教育出版社,2001.287.

**REFERENCES/ СПИСОК ИСТОЧНИКОВ/ FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. 胡适: 《胡适留学日记》第3卷, 上海商务印书馆, 1947年11月第1版
2. 胡适: 《逼上梁山》, 《胡适文集》第1卷, 北京大学出版社, 1998年.
3. 胡适.谈新诗.中国新文学大系·建设理论集.上海:上海良友图书印刷公司, 1935 .
4. 胡适:《白话律诗》,《胡适留学日记》第4卷,上海商务印书馆,1947年11月 第1版.
5. 胡适: 《尝试集》, 《胡适全集》第10卷 , 安徽教育出版社, 2003 年
6. 李孝悌 .胡适与白话文运动再评估——从清末的白话文谈起.清末的下层社会启蒙运动:1901 -1911.石家庄 :河北教育出版社, 2001.287.

Озоджон Очилов. "Хитой янги шеъриятининг эволюцион шаклланиш хусусиятлари (XIX асрнинг охири-XX асрнинг бошлари)" Sharq ma'shali / Восточный факел, vol. 14, no. 2, 2022, pp. 20—25.